

OCHIQ IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Xalmuratov Kuanish

Qoraqalpoq davlat universiteti, docenti

Kamalov Ulugbek

Qoraqalpoq davlat universiteti, talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqa xizmat kursatish sohasida ochiq iqtisodiyot sharoitida innovacion xizmatlar turlari yullari xususida suz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: mintaqa, ochiq iqtisodiyot, investiciya, innovaciya, infratuzilma, xizmatlar sohasi.

Аннотация. В данной статье рассматривается пути инновационных видов услуг в условиях открытой экономики в сфере услуг в регионе.

Ключевые слова: регион, открытая экономика, инвестиция, инновация, инфраструктура, сфера услуг.

Abstract. This article discusses the ways of innovative types of services in an open economy in the service sector in the region.

Key words: Region, open economy, investment, innovation, infrastructure, service sector.

Ochiq bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion xizmatlar turlarining rivojlantirilishi mamlakat va mintaqa iqtisodiyoti oʻsishi, hamda xalqaro xizmatlar savdosida uning raqobatbardoshligini oshirishda katta ahamiyatga ega boʻlmoqda.

Ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotini asosiy qismini xizmatlar tashkil qilayotgan bir paytda, jahon hamda mamlakatimiz iqtisodiyotida ham xizmatlarning ulushi yildan-yilga ortib borishi kuzatilmoqda. Bunga asosiy sabab bo'layotgan omillaridan biri, ishlab chiqarish va aholi xizmatlar iste'molining ko'payishi, savdoning erkinlashuvi, erkin iqtisodiy hududlar sonining ortishi, investitsiya va, eng muhimi, innovatsion texnologiyalarning o'sib borayotganligidir. Xizmatlar sohasi nisbatan katta kapital xarajatlarsiz aholi uchun yangi ish urinlarini yaratishda, YAIM hajmining oshishida mamlakat iqtisodiyotining asosiy ustuvor tarmoqlaridan bo'lib, u iqtisodiy-ijtimoiy o'sishni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoev takidlaganidek, "Xizmat ko'rsatish sohasi aholi bandligini ta'minlashda eng katta zahiralardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 35 foizni tashkil etadi. Xalqaro mehnat tashkiloti tahlillariga ko'ra, servis industriyasining 1 foizga o'sishi kambaqallar sonini 1,5 foizga qisqartiradi" [1].

Dunyo bo'ylab xizmatlar savdosining bunday jadal rivojlanishi bir qator omillarga bog'liq bo'lsada, bularning ichida eng ahamiyatlisi innovatsiyalarga va ilmiy-texnik bilimlarga asoslangan xizmatlarning taraqqiy qilishi va ular ulushining oshib borishida bo'lmoqda. Xizmatlar savdosi avval inson omili bilan bevosita bog'liq bo'lgani uchun qiyin kechgan bo'lsa, keyinchalik bilimlarga tayangan raqamli iqtisodiyotning rivoji xizmatlar xalqaro savdosini yuritishda bir qator to'siqlarni bartaraf qildi va sohani innovatsion rivojlanishiga asosiy turtki bo'ldi. Internet, mobil aloqa vositalari, nanotexnologiyalar va boshqa intellektual texnologik innovatsiyalar xizmatlar savdosini huddi tovarlar savdosi kabi deyarli moddiy ko'rinishga keltirib qo'yimoqda. Kelajakda texnologiyalarning bunday virtual imkoniyatlarining oshib borishi xizmatlar tezligini yanada oshirib uning tannarxini yanada tushirishi va xizmatlar sohasining global bozorda yana katta ulushga ega bo'lishiga olib kelishi ehtimolini yuqori qilib quymoqda.

Ushbu maqolada tadqiqot obyekti qilib olingan mintaqaviy xizmatlarining innovatsion yo'nalishlaridan hisoblangan ta'lim hamda dasturlash xizmatlari

doirasida ularning xalqaro savdosiga katta etibor qaratilmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasi”da xorijiy talabalarning ulushini 2019-yildagi 1% dan 2025-yilgacha 10% [2] va 2030-yilgacha esa 15%ga olib chiqish, hamda dasturlash xizmatlari xalqaro savdosi bo‘yicha “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasida dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnoparkining inkubatsiya va akseleratsiya dasturlariga kiritilgan startap-loyihalar sonini 2020-yildagi 50 tadan 2025-yilgacha 700 taga, 2030-yilgacha esa 2300 taga olib chiqish, shuningdek, dasturiy mahsulotlar eksportini 2020-yildagi 10 million dollardan 2025-yilgacha 100 million dollargacha, yani, 10 barobar oshirish va ularni yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning axborot texnologiyalari sektoridagi ulushini kamida 4 foizga ko‘tarish strategik maqsad qilib rejalashtirilgan [3].

Globalashuv sharoitida dunyoning ochiq iqtisodiyotga ega bo‘lgan barcha mamlakatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlarda uzining munosib o‘rniga, tovarlar va xizmatlarning eksporti va importida salmoqli ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, milliy iqtisodiy samaradorligini oshirishga qat’iy harakat qilmoqdalar. Xizmatlar xalqaro bozorlariga kirishga intilayotgan va xalqaro savdo aylanmasida etarlicha ulushga ega bo‘lmagan mamlakatlar uchun xizmatlar sohasini rivojlantirish va kelajakda uni rivojlangan mamlakatlar standartlari darajasiga olib chiqish va bu xizmatlarga ichki va asosan tashqi talabning paydo bulishi ular milliy iqtisodiyoti taraqqiyotida juda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Jahondagi taraqqiy qilgan mamlakatlarning innovacion xizmatlar xalqaro savdosi tajribasidan malumki, ularda xalqaro iqtisodiy munosabatlar mexanizmini muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilishi orqali hozirgi samarali natijalarga erishganlar.

Innovatsiyalar barcha iqtisodiy jarayonlar subyektlari uchun foydali bo‘lgan iqtisodiy taraqqiyotning muhim omilidir. Innovatsiyalar xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish samaradorligini, tejamkorligini va albatta yuqori sifat ko‘rsatkichlarining asosi hisoblanadi. Innovatsiyalar korxonalar uchun bozorlarga kirishda

raqobatbardoshlikni taminlasa, mamlakat uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni o'stirishga xizmat qiladi.

Innovatsion rivojlanishning asosini mamlakatda ta'limga bo'lgan e'tibor, raqamli va bilimlarga asoslangan iqtisodiyot, hamda erkin va ochiq iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi. Innovatsion xizmatlar xalqaro savdosi ochiq iqtisodiy aloqalar kengayib borayotgan hozirgi sharoitda global iqtisodiy munosabatlarning muhim bir ko'rinishi bo'lib, turli mamlakatlarning sotuvchilari, iste'molchilari va vositachilar o'rtasidagi xizmatlarning yuksak shaklini anglatadi.

Globalashuv jarayonining hozirgi bosqichida, yangi Uzbekiston sharoitida respublikada oxirgi besh yillikda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ham xalqaro iqtisodiy munosabatlar, ayniqsa, uning jadal suratlar bilan rivojlanayotgan xalqaro savdo va xizmatlar sohasi rivojiga salmoqli tasir qilmoqda. Chunki hech bir mamlakat uzi hohlagan g'oyaga, madaniyatga, siyosatga, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarga asoslanishidan qat'iy nazar, xalqaro savdoni va xizmatlarni keng yulga quymasdan, uz qobi'giga uralgan holda ishlab chiqarishni, aholisini zamonaviy tovar va xizmatlarga ehtiyojlarini mustaqil ravishda samarali qondira olmaydi va uzoq muddatli rivojlanishga erishishi mumkin emas. Xalqaro savdo munosabatlarini samarali yulga quyish asosan ochiq iqtisodiyot tartib qoidalari orqali mamlakatlar uzlarida etishtirish ustunliklari bulmagan tovarlar va xizmatlarga bulgan ehtiyojlarini qondiradilar yoki ularni mavjud imkoniyatlar darajasida ishlab chiqarish samarasiz bulgan bu munosabatlarda ishtirokchi mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashuvi va unda faol qatnashuvi natijasida milliy iqtisodiyotning taqchil, noyob va tanqis resurslarni iqtisod qilgan holda uz ehtiyojlarini samarali qondirib, eksport aloqalari orqali milliy iqtisodiyotining jadal suratlar bilan rivojlanishiga erishadilar. Bunday xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yulga quyishning asosiy ustunlaridan biri bu-xorijiy mamlakatlar bilan xizmatlar xalqaro savdosini va unda samarali, ustuvor innovacion xizmatlar turlarini keng yulga quyish hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning rivojida xizmatlarning xalqaro savdosi mamlakat ichkarisida moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish bilan bogʻliqlikda amalga oshiriladigan jarayon bilan uzaro uyğunlikda bulishi taqozo qilinadi.

Xizmatlar xalqaro savdosini amalga oshirishdan va uni taraqqiy qildirishdan eng asosiy maqsad, albatta, bu turli mamlakat va hududlardagi elat va millatlardagi istak va hohishlarning bir xilda emasligi, farqlanishi hamda ular ehtiyojlarning cheksizligi, turli-tumanligi va usib borishi hamda jahondagi birorta ham davlatning uzlarida mavjud bulgan moddiy va nomoddiy resurslar bilan uz ehtiyojlarini tula qondira olmasligidadir.

Globalizatsiya jarayonida xizmatlar savdosining oʻsishi nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda ham namoyon boʻlmoqda. Chunki ilgʻor texnologiyalarning taraqqiy qilib borishi yoki malakali kadrlarning bir joydan ikkinchi joyga migratsiyasining kuchayishi, shuningdek, ularning tajriba orttirib, oʻz yurtiga qaytishi oʻz ijobiy taʼsirini koʻrsatmoqda. Oʻzaro raqobat kurashlari keskinlashgan sharoitda bu strategik vazifani hal qilishda innovatsiyalar barcha uchun bir xilda muhim va bunga erishish uchun har qanday davlat izchil chora-tadbirlar kurayotganligi ham muhim ahamiyat kasb qilmoqda.

Yaqin kelajakda rivojlangan mamlakatlar bilan xizmatlar savdosining ikki tomonlama va koʻp tomonlama bevosita iqtisodiy aloqalarni oʻrnatish mamlakatimiz va uning mintaqalari uchun eng asosiy omil bulib borayotganligi va shu hamkorlik aloqalari asosida sohani rivojlantirish milliy iqtisodiyotimiz yuksalishini yanada jadallashtirishi koʻzda tutilmoqda. Hozirgi kunda eng asosiy ustuvor tarmoqlardan hisoblangan xizmatlar sohasining mamlakat YAIMdagi ulushi pastligi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarimizdan biri boʻlgan ishsizlik, tashqi savdo toʻlov balansining barqarorligiga, valyuta tushumi, inflyaciya darajasiga oʻz tasirini oʻtkazadi. Bu muammolarni hal qilishning jiddiy vositasi boʻlgan xizmatlarni, ayniqsa, uning innovatsion yunalishlarini yuqori surʼatlarda rivojlantirish muhim strategik masalalardan boʻlib hisoblanadi [4].

O‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan bo‘lgan aholini ish bilan band etish masalalarini bartaraf etishda xizmat ko‘rsatish sohasining ahamiyati ayniqsa beqiyosdir. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish aholi bandligi darajasini oshishiga jiddiy ta‘sir qiladi, aholi turmush darajasini yaxshilaydi. Bundan tashqari, mazkur sohada yangi ish urinlarini tashkil qilinishi byudjetning istemolga ajratiladigan xarajatlarini kamaytiradi va maxsus jamgarmalarga pul tushumini oshiradi, tadbirkorlikning turli samarali xizmat sohalarida faoliyat olib borishini kengaytiradi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 16 июндаги хизмат кўрсатиш ва ички туризмни ривожлантириш масалалари бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги нутқи.

<https://xs.uz/uzkr/site/search?q=2020-06-16>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармонига 1-илова.

[<https://lex.uz/docs/4545884>]

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон “Рақамли Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонига 1-илова.

[<https://lex.uz/docs/5030957>]

4. Чўпонов С.О. “Минтақада инновацион хизматлар турларини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш” мавзусидаги диссертацияси, 2021 й